

**MARKAZIY OSIYODA DASTLABKI ILMIY – FALSAFIY MADANIYATNI
VUJUDGA KELISHI****Davronov Ziyot Davronovich.***F.f.d., professor.***Salimov Baxriddin Lutfullaevich.***TDTr.U dotsenti.***A'zamxo'jaev Elyorjon Kamoliddin o'g'li.***TDTr.U talabasi.*

Annotatsiya: *Falsafiy dunyoqarash tafakkurlash jarayoniga e'tiborni qaratadi. Insonni ijod qilishga chaqiradi va shu bilan birga o'z mavzusini boyita boradi. Falsafiy dunyoqarash ham o'zining maxsus xususiyatlariga ega. Chunki, u nazariy tomonlarga ko'proq e'tiborni qaratadi. Falsafiy dunyoqarash olam, inson, jamiyat, tabiat haqidagi umumiy tasavvurlar va savollarga javob berishga intilgan jarayondir. Xulosalar chiqaradi.*

Kalit so'zlar: *Falsafiy dunyoqarash, ilmiylik, inson, aql, tafakkur.*

Abstract: *Philosophical worldview focuses on the process of thinking. It calls a person to creativity and at the same time enriches its subject. Philosophical outlook also has its own special features. Because he pays more attention to theoretical aspects. Philosophical worldview is a process that seeks to answer questions and general ideas about the universe, man, society, and nature. Draws conclusions.*

Key words: *Philosophical outlook, science, man, mind, thinking.*

Mamlakatimiz hududida madaniy-ma'naviy hayot kushonlar davrida ancha rivoj topgan. O'sha vaqtlarda So'g'dcha, Xorazmcha, Parfiyacha, Baqtriyacha yozuvlar paydo bo'lganligi bu yerdagi rivojlanishdan dalolat edi. Mazkur yozuvlarda xalqning siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy, falsafiy hayotiga xos fikrlar aks ettirilgan. Ulardan tarixchilar foydalnib hozirgi zamonda xulosa chiqarsalar, adabiyotchilar esa qiziqarli voqealarga duch keladilar. Masalan, So'g'dlik ayolning o'z onasi bilan yozishmalari (312-313) ularda ijtimoiy voqelik bilan birga oilaviy munosabatlar, sevgi sirlari mavzulari fikrimizning dalilidir. Aynan kushoniylar davrida mintaqamizdagi madaniy hayotning quruvchilik, haykaltaroshlik, rassomlik, naqqoshlik kabi sohalari me'yorida rivoj topgan. So'g'diyona, Baqtriya, Toshkent, Farg'ona, Termiz, Sharqiy Turkiston kabi joylarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar shunday mulohaza yuritishga asos bo'la oladi. Ishlab chiqarishning rivojlantirish, turar joy qurish, sun'iy sug'orish ishlari, mudofaa ishlari, tijoratga taalluqli inshootlar barpo etish ishlari dolzarb bo'lgan. Devorlarda ishlangan rasmlar, naqshlar o'sha davr voqeligini namoyish qilgan. I-II nchi asrlar davomida ilm-ma'rifat sohasi yanada taraqqiy qilib astronomiya, matematika, musiqashunoslik, gramatika, metereologiya, ximiya, falsafa, tibbiyot, dorishunoslik kabi yo'nalishlar insonlarda katta qiziqish uyg'otgan. Kushoniylar Hindistonning katta qismini egallashi natijasida So'g'diyona

saltanati Peshovarga ko‘chirilishi natijasida buddaparastlik dini o‘lkamizga ham tarqalgan. Bizning hududimizdan Xitoyga, so‘ngroq Tibetga va Yaponiyaga tarqalgan.

“Mintaqaning kushoniylar davri tashqi aloqalarida savdo-sotiq alohida ahamiyat kasb etgan. Miloddan avvaligi II asrdayoq shakllana boshlagan. Buyuk Ipak yo‘li bu vaqtda jadal sur‘atlar bilan faoliyat ko‘rsatar edi. Xitoydan Turkistonga va u orqali g‘arbdagi mamlakatlarga ipak, lak va boshqa mahsulotlar, Xitoyga esa zotdor arg‘umoqlar, shishadan yasalgan turli buyumlar olib borilgan. So‘g‘diyonalik, Baqtriyalik savdogarlar Rim saltanati shaharlarida savdo-sotiq bilan shug‘ullanib, qimmatbaho toshlar, temir va temir buyumlar, qurol-yarog‘, ipak kabi mahsulotlar bilan ta‘minlab turganlar va ularning evaziga asosan oltin, kumush tangalar olib qaytganlar. Rimlik savdogarlar ham o‘lkamizga kelishda asosan oltin va kumush tangani g‘amlash hisobiga mahalliy mollarni sotib olganlar. Savdogarlarning esa ko‘p hollarda elchilar bilan hamroh bo‘lib yurganlari yaxshi ma‘lum. Rim bilan munosabatlar ham bundan istisno emasdi. Chunonchi, 99 yili kushoniy hukmdorning elchilari Rim imperatori saroyida bo‘lganini bilamiz» (Azamat Ziyov. O‘zbek davlatchiligi tarixi. T., “Sharq”, 2001 yil 72-bet).

O‘rta Osiyo uyg‘onish davrida va keyinroq ijod etgan tarixchilar Hamza Isfag‘oniy, Tabariy, Mas‘udiy, Beruniy, Saolibiylar boshqalar asarlarida haqiqiy xalq og‘zaki ijodiyoti orqali xalqlarining falsafiy faoliyati ta‘riflangan va tasvirlangan.

Qadimgi og‘zaki ijod yodgorliklari: miflar, afsonalar, qahramonlik eposi, qo‘shiqlar, lirik she‘r va boshqalardan iboratdir. Shu sohalar orqali qadimgi O‘rta Osiyo ma‘naviyati va madaniyati, turmush tarzini bilish, hamda xulosalar chiqarish mumkin. Jumladan, shulardan biri «Erxubba» afsonasidir. Xubbi obrazi misolida biz ajdodlarimizning yuksak ma‘naviyati bilan tanishamiz. Garchand Xubbi afsonaviy qahramon sifatida tasvirlangan bo‘lgani uchun ham ma‘lum ma’noda o‘tmishdagi insoniy xislatlarni o‘zida aks etdirgan. U suv xudosi sifatida, insonlarni halokatdan qutqaruvchi qahramon, vatanparvar inson sifatida tasvirlanadi.

Yuksak falsafiylikni yana bir og‘zaki ijodda ko‘ramiz. Bu "Zarina va Striangiya" qissasidir. Bu qissada shaklar podshosi vafot etib, uning o‘rnini xotini Zarina egallaydi. Tadbirkor va qo‘rqmas bu ayol qabila tinchligini va mustahkamligini saqlash uchun harakat qiladi. Zarina tarafdorlari bilan Midiya podsholigi o‘rtasida bo‘lgan jangda Striangiya Zarinani yarador qiladi. Zarinaning botirligini ko‘rgan Striangiya uni asirlikka olmaydi. Lekin, oradan biroz vaqt o‘tgach, Parfiya shohi Zarinaga uylanib, shakllarni o‘ziga taslim va tobe qilmoqchi bo‘ladi. Zarina unga ko‘nmaydi. Biroq shoh zo‘rluk qilib uylanadi va shakllarni qaram qiladi. Zarinadagi o‘z qabilasiga bo‘lgan hurmat uni kurashga otlantiradi. Shu payt, Parfiya bilan Midiya o‘rtasida jang bo‘lib, midiyaliklarning ko‘plari asirga tushadi. Asirlar bilan Zarina birlashib Parfiya shohiga qarshi to‘satdan hujum qiladi. Parfiya shohi yengilib, asirlar ozod bo‘ladi. Zarina ulardan himoya olib, qabilasi mustaqilligini tiklaydi. Bu jarayonlarda Striangiya Zarinani sevib qoladi. Zarina esa Striangiyaning jasur va mard jangchi sifatida e‘zozlaydi. Striangiyaning uylanish haqidagi taklifini rad etadi. Sababi, uning xotini bor edi. Striangiya bunga chiday olmay o‘zini- o‘zi o‘ldiradi. Ko‘rib turibmizki, bu xalq og‘zaki ijodida ham, vatanparvarlik, mustaqillik uchun

kurash, sevgi-sadoqat singari yuksak ma’naviy, falsafiy qirralari o‘z aksini topgan. Afsonadagi qahramonlik va sevgi jihatlari har qanday inson qalbini larzaga keltiradi. Chunki, bu qissada insonning aql-zakovati, tadbirkor bo‘lishi, or-nomusi, odobi, hurmat va ehtiromi, qahramonligi va sevgisi yorqin tasvirlangan. Demak, o‘sha davrda ham ushbu insoniy xislatlarga ko‘proq e’tibor qaratilgan degan xulosani chiqarish mumkin.

Uzoq zamonlardagi hodisalarni yanada yaqqolroq tushunish uchun yana bir afsonaviy voqeani misol qilib olish mumkin. Bu «Zariadr va Odatida» afsonasidir. Bu afsonada ham qahramonlik, sevgi-muhabbat hodisalari tasvirlangan, unda ko‘rsatilishicha, Gushtasb Midiyada, uning ukasi Zariadr Kaspiy dengizidan Tanais (Sirdaryo)gacha cho‘zilgan yurtda podshohlik qilganlar. Tanaisning narigi tomonida yashagan Skif shohi Omargning qizi Odatida yashagan va Odatida Zariadr bir-birini tushida ko‘rib sevishib qoladilar. Zariadr qizga uylanish uchun sovchi yuboradi. Lekin, Omarg yolg‘iz qizini uzoq yurtga berishni istamaydi. Zariadr o‘z ahdidan qaytmay, aravakash yordamida Tanaisdan kechib o‘tib, Omarg qarorgohiga keladi. Omarg yigitlar sharafiga ziyofat berib, qiziga aytadiki, yoqtirgan yigitingga oltin qadahda may tutgin deydi. Ziyofatda skif kiyimida Zariadr ham qatnashayotgan bo‘ladi. Odatida aynan, oltin kosada Zariadrga may tutadi. Zariadr Odatidani olib o‘z yurtiga ketadi. Qissadan hissa shuki, bu afsonada ham oilaviy munosabatlar, sevgi jarayonlari aks ettirilgan. Qiz va yigitning sevgi bobidagi erkinlik his-tuyg‘ulari o‘rtaga qo‘yilganki, bular qadim davrdagi falsafiy hayot jarayonlaridan darak beradi. Shu kabi falsafiy jarayonlar aks etgan Mitra, Kayumars, Gershasp, Go‘ro‘g‘li, Alpomish, Rustam, Shiroq, Siyovush kabi qahramonlar xalq og‘zaki ijodida mavjud bo‘lganki, ularda bahodirlik, mardlik, xalqni sevuvchi, fidokorlik ko‘rsatuvchi kishilar obrazi tasvirlangan.

Bundan tashqari o‘sha davrdagi qo‘shiqlar, lirik she’rlar, mehnat, qahramonlik, marosim, mavsum qo‘shiqlari bo‘lganki, ularda falsafiy qirralar haqida fikr yuritilgan.

O‘rta Osiyoda ham boshqa mamlakatlarda bo‘lgani singari qadimiy dinlar mavjud bo‘lib, ulardan ba’zilari ustida to‘xtalamiz. Shulardan biri zardushtiylikdir. Zardushta-tarjimasi, tilla rangli, kekxa tuyalarning sohibi ma’nosini beradi. Bu din o‘zining sofli-gi bilan diqqatga sazovordir. Shu bilan birga, bu din, o‘z davri insonlarning ma’naviyati, madaniyati, urf-odati, falsafasi, axloq-odobini o‘zida aks ettiradi. Zardushtiylik ba’zi mualliflarni fikricha, avvalo mehnatkash xalqning axloqiy qoidalarini ifodalab, keyinroq diniy kishilar qo‘lida siyosat yurgizishda qo‘l kelgan. Aslida zardushtiylik jamiyatni tinch va osoyishtalik, barqaror holatda bo‘lishi, insonlarning bir-birlariga maslakdosh, ko‘makdosh bo‘lishi kabi falsafiy g‘oyalarni olg‘a surgan. Shu bilan birga, zardushtiylikda insonlarning axloqiy va huquqiy normalari ham ifodalangan.

REFERENCES:

1. Зиёд Давронов (2022). БИОЭТИКАНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ ҲАҚИДА. Academic research in educational sciences, TSDI and TMA Conference (1), 82-84.
2. Давронов, З. Д. (1990). Возможность и действительность. Фан.
3. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов. (2022) САНОАТ, ФАН-ТЕХНИКА ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ТАБИАТ, ЖАМИЯТ ВА ИНСОНИЯТ ҲАЁТИ БИЛАН ДИАЛЕКТИК АЛОҚАДОРЛИГИ. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 11, 351-358.
4. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов. (2022) ЖАМИЯТНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ТАКОМИЛЛАШУВИДА БОШҚАРУВ ВА ТАРБИЯ САНЪАТИНИНГ ЎРНИ. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 11, 359-365.
5. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Ижтимоий муносабатларнинг шаклланиши ва барқарорлигини белгиловчи муҳим тамойиллар. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.
6. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Бирдамлик ва ҳамжиҳатлик – ижтимоий муносабатларнинг келажагидир. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.